

TASDIQLAYMAN



Tog' -kon sanoati va geologiya
vazirining birinchi o'rinbosari
F. Xamidova

2026-yil

»

TEXNIK TOPSHIRIQ

MA'MURIY BINONING ENERGETIKA XO'JALIGINI YURITISH, EKSPLUATATSIYA QILISH HAMDA ENERGIYA SAMARADORLIGINI MONITORING VA TAHLIL QILISH BO'YICHA

1. UMUMIY QOIDALAR VA ENERGETIKA XO'JALIGINI YURITISH ASOSI

1.1. Ushbu Texnik topshiriq korxonada energetika xo'jaligini tizimli tashkil etish, ish samaradorligini oshirish va energiya resurslaridan oqilona foydalanish tartibini belgilaydi.

1.2. **Energetika xo'jaligini yuritishning asosiy maqsadi hamda zaruriyati:** Bino va obyektlarda elektr energiyasi, issiqlik energiyasi, tabiiy gaz, ichimlik va texnik suv hamda boshqa energiya turlari bilan uzluksiz, texnik xavfsiz hamda iqtisodiy jihatdan samarali ta'minlashdan iborat.

1.3. Energetika xo'jaligini yuritish tizimi obyektning texnik talablariga, amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarga, davlat standartlariga va energiya balansini hisob-kitoblariga tayanadi.

2. OBYEKT HAQIDA MA'LUMOT VA TEXNIK TAVSIF

Obyektning asosiy texnik-ekspluatatsion ko'rsatkichlari quyidagi jadvalda keltirilgan:

No	Ko'rsatkich nomi	Tavsifi / Qiymati
1	Obyekt nomi	7 qavatli ma'muriy turar-joy binosi (yangi qurilgan)
2	Obyekt manzili	Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Olimlar ko'chasi, 49-64-uy
3	Umumiy maydoni	6 440 m.kv
4	Energiya ta'minoti manbalari	Tashqi elektr tarmoqlari, tabiiy gaz tarmog'i, suv ta'minoti, quyosh fotoelektr stansiyasi (QFS), dizel generator qurilmasi
5	Issiqlik ta'minoti	Lokal muqobil qozonxona tizimi (qishki-yozgi rejimda ishlovchi)

3. ENERGETIKA XO‘JALIGINI YURITISHDAN MAQSAD VA ASOSIY VAZIFALAR

Energetika xo‘jaligini yuritish doirasida quyidagi asosiy vazifalarni amalga oshirish va maqsadli natijalarga erishish nazarda tutiladi:

1. Mavsumiy ekspluatatsiya va nazorat: Foydalanishda bo‘lgan elektr energiyasi, tabiiy gaz va suv ta‘minoti tizimlarini, shuningdek, lokal qozonxonaning qishki va yozgi mavsumiy texnik holatini uzluksiz nazorat qilish.
2. Muqobil va zahira manbalari hisobi: Elektr energiyasi ishlab chiqarishda avtonom generatorni yaroqli holda ishlashini taminlash. O‘rnatilgan quyosh panellarining soz holatda va maksimal samaradorlik bilan ishlashini ta‘minlash.
3. Texnik xizmat va ta‘mirlash: Elektr va tabiiy gaz manbalarida ishlaydigan barcha uskunalar, dastgohlar va muhandislik qurilmalarini o‘z vaqtida ta‘mirlash va profilaktika ishlarini olib borish.
4. Shartnomaviy va tahliliy faoliyat: Energoresurslar (elektr, gaz, suv) iste‘moli uchun ta‘minotchi tashkilotlar bilan shartnomalarni rasmiylashtirish, ularning ijrosini va iste‘mol monitoringini yuritish, davriy tahliliy hisobotlarni tayyorlash.
5. Ish boshlanish vaqti soat 9:00 dan 18:00 gacha.
6. Vazirlikda nosozliklar haqida ma‘lumot olish, favqulodda vaziyatlar va ish topshiriqlarini ko‘rib chiqish, elektr taqsimlash xonalari, transformator podstantsiyalari, qozonxona va generatorlarni ko‘zdan kechirish; o‘lchov asboblari ko‘rsatkichlarini tekshirish; xavfsizlik qoidalariga rioya etilishini nazorat qilish; vazifalarni taqsimlash.
7. Rejali profilaktik xizmat ko‘rsatish jadvaliga muvofiq ta‘mirlash va texnik xizmat ko‘rsatish ishlarini nazorat qilish; energiya iste‘molini kuzatib borish; ish topshiriqlari va bajarilgan ishlar bo‘yicha hisobotlarni ko‘rib chiqish.
8. Texnik hujjatlarni yuritish, ish natijalarini ko‘rib chiqish, ekspluatatsiya va nosozliklar bo‘yicha jumallarga yozuvlar kiritish, energiya iste‘moli to‘g‘risida hisobotlar tayyorlash hamda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etilganligini tekshirish, ish yakunida energetika xo‘jaligini takroriy ko‘zdan kechirish, uskunalar ishini me‘yorida ekanligini tekshirish.
9. Xodimlardan ma‘lumot yig‘ish va ertangi kun vazifalarini rejalashtirish.
10. Shartnomada fors-major holatlarda quyidagi ishlar amalga oshirilishi mumkin: "Favqulodda vaziyatlar va elektr ta‘minotidagi favqulodda uzilishlarga tezkor munosabat bildirishni ta‘minlash, jumladan, ish vaqtdan tashqari vaqtda (tungi vaqt, dam olish va bayram kunlari ham) diagnostika o‘tkazish, nosozliklarni bartaraf etish, elektr jihozlar obyektning elektr ta‘minoti tizimi normal ishlashini qayta tiklash ishlarini tashkil etish.


4. MAS‘ULIYAT VA SHARTLAR

6.1. Energetika xo‘jaligini yurituvchi mutaxassis energetik, xizmati barcha muhandislik uskunalari va xavfsizlik texnikasi qoidalariga (QXQ, ETQ) rioya qilinishi uchun javobgardir.

6.2. Barcha hisobotlar va tahliliy ma‘lumotlar belgilangan muddatlarda ishlarni boshqarish bo‘limiga taqdim etib borilishi shart.

**Tog‘-kon sanoati va geologiya
vaziri kotibiyati boshlig‘i**

**Topshiriqni tuzdi:
Ishlarni boshqarish bo‘limi boshlig‘i**

**Z. Saidov**

**D. Xalikulov**